

## QIMMATLI VAQT VA IJTIMOY TARMOQ MASALASIDA

*Ochilova Sarvinoz Husan qizi,  
ToshDO‘TAU, O‘FF,  
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik  
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada vaqt qadri haqida fikr yuritildi. Bugungi kunda omma orasida keng tarqalgan ijtimoiy tarmoq vositalarining yoshlar hayotida tutayotgan o‘rni masalalariga e‘tibor qaratildi.

**Kalit so‘zlar:** *vaqt, ijtimoiy tarmoq, Instagram, TikTok*

Eshitishimcha, vaqt qisqargan emish. Rostdan ham hamma narsa tezlashib ketganga o‘xshaydi. Tun-u kunimizda ma’no qolmayapti. Ko‘p narsalarga ulgurmayapmiz. Qilingan rejalarimizni tugatishga ulgurmasdan bir kunimiz nihoyasiga yetib qo‘yyapti. Kechagina yo‘lda yoshi 35-40 yoshlar chamasi bir kishi qizalog‘ini bo‘yniga mindirib, bilaklaridan ushlab ketyotganini ko‘rgandim. Bir paytlar dadam ham meni shunaqa ko‘tarib yurardilar. Faqat dadam bilaklarimdan emas, kaftimdan tutardilar. Bunaqa olib yurishlari menga juda yoqardi. Xuddi uchib yurgandek his qilardim o‘zimni. Qayrilishga kelganda dadamning quloqlaridan ushlab, xuddi qayriling degandek tortib qo‘yardim. Bularning hammasi go‘yo kecha bo‘lgandek. Vaqtning qanchalar tez o‘tganiga bu ham bir misol. Qancha erkalik qilsak ham bizni boshlarida ko‘taradigan dadajonlarimiz sog‘ bo‘lishsin, ilohim. Hech narsaga ulgurmasak ham ular uchun nimadir ezgu ish qilishga ulgurishimiz kerak deb o‘ylayman.

Vaqt haqida ko‘p gapiramiz-u, uni keraksiz narsalarga sarf qilamiz. Ijtimoiy tarmoqni yomonlamoqchi emasman, ammo “instagram”ni negadir uncha yoqtirmayman. Tanishlarim qo‘ymay ochib berishganidan keyin zo‘rg‘a uch kun ishlatdim. Yoqmadi, shekilli, chiday olmay o‘chirdim. Yaqinda bir qizdan instagram ishlatmaydiganlar zamondan ancha ortda qolgan degan fikrni eshitdim, juda jahlim chiqdi-yu, indamadim. Hayronman, undan qanaqa foyda olishadi. Dam olish uchun desangiz ichi to‘la ahmoqona, mantiqsiz videolar. Ularning hammasi vaqtni o‘tkazish uchun, yomoni shundaki, ko‘pchilik yoshlarning miyasi shular bilan to‘lib, kerakli ma’lumotlarni qabul qilmay qo‘yyapti. Madaniyatsizlik, mantiqsizlik kuchayib, xotira sustlashib ketyapti. Achinarlisi, kishilar oldin mashhur bo‘lish uchun qo‘lidan kelgan hamma yaxshi ishlarni qilishgan bo‘lishsa, hozir qilolmagan, kulgili ko‘ringan, ommaga taqdim etib bo‘lmaydigan holatlarni chiqarib, “trend” deb o‘zlarini xursand qilib yurishibdi. Afsuski, ularning tomoshabinlari kun sayin ortib boryapti. Shulardan yana biri bu - jonli efir, hayronman, bo‘lar-bo‘lmas holatda ham jonli efir qilib nima

topishar ekan. Eng qizig‘i kamerani qo‘shib qo‘yib, o‘zlari boshqa ishlar bilan band bo‘lishadi. Bo‘lar-bo‘lmas mantiqsiz gaplar bilan qolganlarning ham qimmatli vaqtini o‘g‘irlashadi. Qizlarni shu holda ko‘rsam, tepa sochim tika bo‘ladi. Tanishim bo‘lsa, rosa koyib beraman. Begona bo‘lsa, unga achinaman. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda kiyinish madaniyatiga deyarli e‘tibor berilmay qo‘ydi. Axir o‘z nomi bilan u “ijtimoiy” tarmoq, unda sizni jamiyat ko‘radi. Sizdan o‘rnak oladiganlar ham topiladi. Shularni bila turib, madaniyatimizga mos kelmaydigan kiyimlar kiyib, o‘zlarini namoyish qilishadi. Bu juda achinarli holat, afsuski. Biror Nima deb tanbeh bersangiz: “Bu hozir moda, sen buni tushunmaysan”, - deyishadi. Chet elda balki modadir, ammo bizda moda bo‘lsa ham madaniyat va urf-odatlarimizga mos keladigan liboslar kiyish maqsadga muvofiq, menimcha. Axir har bir davlatning, millatning o‘ziga xos urf-odat va madaniyatini bildirib turuvchi liboslari bor. Shularni “moda”ga aylantirib, o‘zbek xalqining dunyoga shu qadar go‘zal xulqli ekanligini ko‘rsatib berishimiz kerak emasmi?! Yo‘lda ketayotib doimiy hammaning qo‘lida “Instagram”, “TikTok” ni ko‘rish jonga tegarkan. Kamiga hozir yoshi kattalar ham bunga ancha berilib ketishibdi. Yoshlarniku aqli yetmaydi hali deb tushunsak, ularga tarbiya berishi kerak bo‘lgan kattalarga nima bo‘lyapti?! Mamlakatimizda yaxshi, ilmi, yurtini dunyoga tanityotgan yoshlari ham anchagina. Biroq yuqoridagi kabi har xil bema‘no ishlar bilan qimmatli umrini zoye qilayotgan “manqurtlar” ham talaygina. Bu ketishda mamlakat kelajagi qay ahvolda bo‘ladi?! Bular sabab hayotimizda reallik, ma‘no va haqiqiy tuyg‘ular qolmaydi. Sog‘ligimizni ham yo‘qotamiz. Gaplarim kimgadir og‘ir botgan bo‘lsa, ming bor uzr!

Shoir va yozuvchi G‘afur G‘ulom o‘zining “Vaqt” she‘rida shunday deydi:

G‘uncha ochilguncha o‘tgan fursatni  
 Kapalak umriga qiyos etgulik,  
 Ba‘zida bir nafas olgulik muddat –  
 Ming yulduz so‘nishi uchun yetgulik.  
 Yashash soatining oltin kapkiri  
 Har borib – kelishi bir olam zamon.  
 Koinot shu damda o‘z kurrasidan  
 Yasab chiqa olur yangidan jahon.  
 Yarim soat ichida tug‘ilib, o‘sib,  
 Yashab, umr ko‘rib, o‘tguvchilar bor;  
 Ko‘z ochib yumguncha o‘tgan dam qimmat,  
 Bir lahza mazmuni bir butun bahor.  
 Bir onning bahosin o‘lchamoq uchun  
 Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.  
 Nurlar qadami-la chopgan sekundning  
 Barini tutolmas ayuhannos ovoz. ...

Ko‘rib turganingizdek shoir vaqt qadrining qanchalik qimmatli ekanligini go‘zal o‘xshatishlar bilan ta‘riflaydi. Bir g‘unchaning ochilishi uchun qancha uzoq vaqt ketsa ham u buni kapalakning bir necha kunlik qisqa umriga qiyos etadi. Insonning bir marta nafas olishiga qancha vaqt ketsa, shu qisqa muddat ichida bu yorug‘ olamni millionlab insonlar tark etishini eslatadi shoir. Uning fikricha, bir onni baholash uchun oltindan tarozu, olmosdan tosh oz. Ha, shoir haq edi. Bugun biz vaqtimizni hech narsaga to‘g‘ri sarflay olmayapmiz. Bu esa achinarli holat.

Shunchaki kech bo‘lmasdan insonlar o‘zlariga kelishlarini xohlardim. Agar kimdir yuqorida aytganlarimning zarardan ko‘ra mamlakatimiz yoshlariga foydasi ko‘proq tegayapti degan fikrda bo‘lsa, iltimos, menga ham tushuntiringki, men ham atrofdagi bu holatlarga bu darajada achinib qaramay. Barcha o‘zining, yaqinlarining va mamlakatining taqdiriga befarq bo‘lmagan insonlardan bunday masalalarga e‘tiborliroq bo‘lishlarini so‘rab qolaman. Zero, hayotda biz uchun berilgan qimmatli umrimizning sarflari haqqini qaytarishimiz bor! Unutmang, e‘tiborsizlik va loqaydlik jamiyatni quritadi. Umid qilamanki, kun kelib bu kabi muammolardan butunlay qutulamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://tafakkur.net/vaqt/gafur-gulom.uz>